

TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA FIN MOTORIKANI RIVOJLANTIRISH

Ermurodov Dilmurat Xushvaktovich

Qarshi shahar 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi
"Tasviriy san'at va chizmachilik" fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15762561>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'quvchilarda nozik motorika (fine motorika) faoliyatining rivojlanishi tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali tahlil qilinadi. Nozik motorika tushunchasining ilmiy asoslari, uning psixofiziologik mohiyati va ta'limiy jarayonda qo'llanilish zarurati asoslab beriladi. Mazkur maqolada o'quvchilar qo'llaridagi mushak faoliyatini, barmoqlar koordinatsiyasi va harakat aniqligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy topshiriqlar va ularning pedagogik samaradorligi yoritiladi.

Kalitso'zlar: fin motorika, tasviriy san'at, bolalar rivoji, badiiy mashg'ulotlar, mushak koordinatsiyasi, pedagogik metodika.

KIRISH

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki o'quvchining individual salohiyatini har tomonlama rivojlantirishni maqsad qilgan. Shunday jihatlardan biri — bu nozik motorika (fine motor skills) deb ataluvchi psixomotor funksiyaning rivojlanishidir. Nozik motorika — bu insonning barmoq, kaft va bilak mushaklarining mayin, aniqlikni talab qiluvchi harakatlaridir. Psixologik tadqiqotlar (J. Piaget, A.V. Zaporozhets, N.I. Gimalayskaya) asosida aniqlanishicha, qo'l motorikasi bilan nutq, tafakkur, yozuv, idrok, ijodiy tasavvur kabi jarayonlar chambarchas bog'liq.

Ushbu tushunchaning ta'lim jarayonida qo'llanilishiga asoslar mavjud. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozuv, tasvir, mustaqil ish faoliyatlarini bajarish davomida qo'l harakatlarini boshqarish malakasi hamda mushaklarning aniq muvofiqligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, tasviriy san'at mashg'ulotlari nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki nozik motorikani shakllantiruvchi samarali vosita sifatida qaralmoqda.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanishida tasviriy san'at orqali nozik motorikani rag'batlantirishning zamirida harakatni sezgi bilan uyg'unlashtirish tamoyili yotadi. Tasviriy faoliyatda — chizish, bo'yash, shakl yaratish, konturga amal qilish kabi jarayonlar o'quvchilarning barmoqlari harakatini aniq, ritmik va koordinatsiyalangan shaklda boshqarishni talab etadi. Bu esa mushak-motorik tizimining shakllanishiga xizmat qiladi.

Nozik motorikani rivojlantirish uchun pedagogika fanida maxsus amaliy mashg'ulotlar va topshiriqlarning didaktik tizimi ishlab chiqilgan. Bular quyidagilardan iborat:

- Liniyalar bo'yicha chizish va bo'yash: konturdan chiqmaslik orqali barmoqni nazorat qilish, bilak va tirsakda harakat aniqligini shakllantirish;
- Mozayka yasash: rangli detallarni to'g'ri joylashtirish orqali ko'z va qo'l muvofiqligini mustahkamlash;
- Plastilin yoki loydan shakl yasash: qo'l barmoqlarini kuchlanish va bo'shashuv orqali nozik harakatlarga o'rgatish;

– Qirqish va yopishtirish: makas (qaychi) bilan ishlash orqali xavfsiz va aniq kesish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Ushbu faoliyatlar bolalarda psixomotor koordinatsiyani, bilakdagi mushak kuchini, o‘zaro muvofiqlikni va eng muhimi — tafakkur bilan harakat uyg‘unligini rivojlantiradi.

O‘quvchilarning faolligini oshirish uchun har bir topshiriq ijodiy yondashuv asosida, **integratsiyalashgan uslub** bilan olib boriladi. Masalan, tasviriy san’at darsini adabiyot yoki tabiatshunoslik darsi bilan bog‘lab, mavzuli rasm ishlash o‘quvchini tasviriy harakat orqali fikr bildirishga undaydi. Bu esa faqat motorika emas, balki tafakkur va ijodiy tasavvurni ham parallel rivojlantiradi.

Shuningdek, nozik motorikani rivojlantirish — yozuv malakasini shakllantirishga bevosita zamin tayyorlaydi. Barmoqlar elastikligi, mushaklar mustahkamligi, koordinatsiya darajasi qanchalik mukammal bo‘lsa, o‘quvchining yozuvda charchashi, harflarni noto‘g‘ri yozishi shunchalik kamayadi. Shu sababli, har bir boshlang‘ich ta‘lim muassasasida tasviriy san’at darslari metodik jihatdan nozik motorika elementlarini nazarda tutgan holda tashkil etilishi zarur.

Fin motorika – bu barmoqlar, kaft va bilak mushaklarining nozik, koordinatsiyalashgan harakatidir. U bolaning faolligi, mustaqilligi, fikrini ifodalash qobiliyati va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasida muhim rol o‘ynaydi. Fin motorika orqali bolalar tugmalarni taqish, qalam ushlash, qaychi ishlatish, mo‘ylab chizish, bo‘yash, yasash va boshqa kundalik harakatlarni mustaqil bajarishga o‘rganadi.

Tasviriy san’at bu harakatlarni tabiiy tarzda, bolaning zavq va qiziqishi asosida rivojlantiruvchi faoliyat turidir. Rasm chizish, shakl bo‘yash, plastilin bilan ishlash, kollaj tayyorlash, mozaika qo‘yish, bo‘yoqlarni aralashtirish, geometrik shakllarni joylashtirish orqali bola nafaqat san’atga mehr qo‘yadi, balki aqliy, jismoniy va ruhiy jihatdan ham faolroq bo‘lib boradi.

Birinchidan, rasm chizish faoliyati orqali bola chiziqlarni to‘g‘ri tortishni, burchaklar yasashni, radiusni aniqlashni, simmetriya yaratishni o‘rganadi. Bu harakatlar aniq mushak harakati va fazoviy tafakkurni talab qiladi. Bola bilmasdan o‘z harakatini boshqarishga, mo‘ljallashga va takrorlashga o‘rganadi.

Ikkinchidan, bo‘yash mashg‘ulotlari — xususan, chegaralangan konturlarda rang berish, rasmga soya tushurish yoki detallarni bo‘yash bola e‘tiborini jamlash, aniqlikni saqlash, sabr qilish va to‘liq yakunlashga o‘rgatadi. Ranglar tanlash orqali esa bola estetik did va rang hissiyatini rivojlantiradi.

Uchinchidan, plastilin yoki loy bilan ishlash – fin motorika uchun ayni kerakli faoliyat bo‘lib, barmoqlar kuchini, shakl berish qobiliyatini, matnli yuzalarni ajratish va aniqlash ko‘nikmasini oshiradi. Bu bilan bola “qo‘li bilan o‘ylash” tajribasini hosil qiladi, ya‘ni aqliy va jismoniy faoliyat uyg‘unlashadi.

To‘rtinchidan, geometrik chizmalar bilan ishlash (masalan, chiziq bo‘yicha chizish, murakkab geometrik shakllarni chizib to‘ldirish) bolaning analitik tafakkurini, mantiqiy kuzatuvchanligini va tafsilotga e‘tiborini kuchaytiradi. Bu, ayniqsa, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun yozuvga tayyorgarlikning ajralmas qismidir.

Beshinchidan, san'at orqali bolaning ijodkorlik salohiyati ochiladi. Ijodiy yondashuv esa har doim fikrlashning moslashuvchanligi, sintez va analizga tayyorlik, yangi g'oyalarni ilg'ab olish qobiliyati bilan bog'liq. Bu jihatlar kelgusida bolaning mustaqil fikr yuritishida ham muhim o'rin egallaydi.

Bolalarda fin motorikaning shakllanishi — bu nafaqat jismoniy harakatlar tizimi, balki psixomotor muvofiqlik, idrok, tafakkur va e'tiborning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydigan murakkab jarayondir. Ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshida bola organizmining fiziologik rivojlanish sur'ati bilan bog'liq holda nozik harakatlar hali to'liq mukammallashtirmagan bo'ladi. Bu esa pedagogdan ushbu jarayonni tabiiy va izchil faoliyatlar orqali, bosqichma-bosqich rivojlantirishni talab etadi.

Bu borada tasviriy san'at mashg'ulotlari pedagogik amaliyotda beqiyos vosita sifatida ajralib turadi. Chunki bu faoliyatlar bola uchun majburiyat emas, balki qiziqarli, erkin, o'yin bilan uyg'unlashgan ijodiy jarayon bo'lib xizmat qiladi. Bola rasm chizar ekan, u ongli ravishda emas, balki tabiiy tarzda o'z barmoqlarini, bilak mushaklarini, kaft harakatlarini mustahkamlab boradi. Aynan shuning uchun ham chizmachilik mashg'ulotlari o'zida nafaqat san'atni, balki harakat madaniyatini, ichki fe'l-atvorni, muvozanatni va e'tiborni tarbiyalaydi.

Shu nuqtai nazardan, fin motorikani rivojlantirishga xizmat qiluvchi san'at mashg'ulotlari ikki asosiy yo'nalishda samarali bo'lishi mumkin [1]:

1) Strukturalangan (ya'ni oldindan rejalashtirilgan, bosqichma-bosqich topshiriqlarga asoslangan)

2) 2) Erkin ijodkorlik (bola o'z xohishiga ko'ra shakl, rang, forma tanlaydi)

Strukturalangan mashg'ulotlarda o'qituvchi bolaning harakat faoliyatini maqsadli ravishda boshqaradi. Masalan, "berilgan chiziqdan chiqmasdan bo'yash", "to'g'ri chiziq bo'ylab yurish", "nuqtalardan iborat rasmni to'ldirish", "katta-kichik figuralarni qiyoslab chizish" kabilar orqali bola aniqlik, muvozanat, sezgirlik va chiziq nazorati kabi jihatlarda mashq qiladi. Bunday topshiriqlar ayniqsa yozuvga tayyorgarlik bosqichida muhim o'rin tutadi.

Erkin ijodkorlik mashg'ulotlarida esa bola o'z ichki tasavvurini kaftlari orqali tasvirga aylantiradi. Bu jarayonda uning psixologik holati barqarorlashadi, o'zini erkin his qiladi, tashqi muhit ta'siridan holi holda mustaqil qaror qabul qiladi. Shuningdek, bola harakatlarini boshqarishda individual uslubni qo'llay boshlaydi, bu esa motorika bilan birga temperament, xarakter, ijodiy yondashuv elementlarini ham rivojlantiradi.

Bu ikki yondashuvni o'zaro muvofiqlashtirgan holda tashkil etilgan san'at mashg'ulotlari bolada barqaror, izchil va to'laqonli fin motorika shakllanishini ta'minlaydi. Masalan, birinchi bosqichda konturli rasmlar bo'yicha rang berish topshirilsa, keyingi bosqichda bola o'z tasavvuridan kelib chiqib, qismchalarni to'ldiradi, uchinchi bosqichda esa mustaqil rasm chizadi. Bu jarayonlar o'z ichiga ko'rish-motor koordinatsiyasini, barmoq sezgirligini, mushaklar mustahkamligini, kognitiv rejalashtirishni va xulqni boshqarish qobiliyatini qamrab oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalik davrida fin motorika faol rivojlangan bolalar nafaqat yozuv va tasviriy san'atda, balki umumiy fikrlash, nutq, nutqdagi pauza va urg'ularni to'g'ri anglash, makon va vaqt tasavvuri kabi sohalarida ham ancha muvaffaqiyatli bo'ladi. Bunda tasviriy san'at bilan muntazam shug'ullanish bolaning nafaqat qo'lini, balki miyasini

“ishlatadi”. Chizilgan har bir chiziq, qo‘yilgan har bir nuqta ongdagi obrazlar va tashqi idrok o‘rtasidagi bog‘lanmani mustahkamlaydi [2].

Shu o‘rinda muhim jihatlardan yana biri — mashg‘ulotni bolaga moslashtirish, ya‘ni shaxsiylashtirish tamoyilidir. Har bir bola o‘zining sezuvchanligi, mushak kuchi, harakat tezligi, vizual idroki bilan boshqasidan farqlanadi. O‘qituvchi bolalarga bir xil topshiriq beribgina qolmay, ularning bajarish uslubiga e‘tibor qaratmog‘i lozim. Ayrim bolalar chizishni sekin, ehtiyotkorlik bilan amalga oshiradi, boshqalar esa tez, dinamik, ba‘zan betartib tarzda bajaradi. Bu holatda o‘qituvchi har bir bolaning fin motorikasini rivojlantirishga mos usul tanlaydi.

Metodik yondashuvlar orasida Montessori metodikasi, Reggio Emilia falsafasi, “qo‘l orqali tafakkur” (learning by doing), sensor kartochkalar, rel‘yefiga ega rasmlar o‘quv vositalari, shuningdek raqamli chizmachilik dasturlaridan foydalanish fin motorikani rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi. Ayniqsa, finger-painting (barmoq bilan bo‘yash), multi-sensorli interaktiv doskalar orqali ishlash, ekrandagi shakllarni sichqon yordamida joylashtirish — bularning barchasi zamonaviy bolani qiziqitirish bilan birga, uning motorik rivojiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi [3].

Tasviriy san‘at faoliyati bolada faqat nozik harakatni emas, balki vizual tafakkur, ichki intizom, psixologik muvozanat va emotsional barqarorlikni shakllantiradigan murakkab, ko‘p qatlamli jarayon sifatida talqin etilishi lozim. Ayniqsa fin motorika bilan bog‘liq harakatlar, ya‘ni barmoqlar harakati orqali rasm chizish, qalam yoki bo‘yoq ushlab ishlash, shakl yasash, kesish, yelimlash kabi faoliyatlar bolaning organizmidagi neyropsixologik tizimlar — ya‘ni qo‘l-miya, ko‘z-idrok, emotsiya-harakat o‘rtasidagi bog‘lanmalarni mustahkamlab boradi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, tasvirlash jarayoni bola uchun nafaqat vizual ijod, balki harakatli mulohaza vositasidir. Bola biror rasmni chizishga kirishar ekan, u avvalo rasmni ko‘z oldida tasavvur qiladi, so‘ngra bu obrazni bosqichma-bosqich kaft harakatlari orqali aks ettiradi. Bu jarayon, bir qarashda oddiy tuyulsa-da, aslida tafakkur, xotira, obrazli fikrlash, muvozanat, chiziqli harakat va emotsional qatnashuvning integratsiyalashgan shaklidir. Demak, bola barmog‘i bilan chizayotganda, uning miyasi fikr, tasavvur, baho va estetik mezonlar asosida faoliyat yuritmoqda bo‘ladi [4].

XULOSA VA MUNOZARA

Nozik motorika boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixofiziologik rivojida muhim omil bo‘lib, uning shakllanishi ta‘lim samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Tasviriy san‘at mashg‘ulotlari esa ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishda eng tabiiy va samarali vosita hisoblanadi. O‘quvchilarning rasm chizish, shakl yasash, materiallar bilan ishlash jarayonida qo‘l barmoqlari, bilak va tirsak mushaklari o‘zaro uyg‘unlashadi, bu esa yozuv, ifoda, mulohaza va psixomotor muvozanat uchun qulay zamin yaratadi.

Kelajakda ushbu yo‘nalishda maxsus amaliy mashg‘ulotlar to‘plami, diagnostika mezonlari va tasviriy san‘at darslarida mayda qol motorikalarini rivojlantirish orqali mavzuni samaraliroq o‘zlashtirish imkonini beruvchi sinfda qo‘llash uchun multimodal resurslar ishlab chiqilishi pedagogik tajribaga sezilarli yangilik olib kiradi.

REFERENCES

1. Jabborova Z.N. Bolalarda nozik motorikani rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 184 b.
2. Xasanova M.X. Bolalar tasviriy san’atining rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 192 b.
3. Axmedova S. Tasviriy san’at orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat koordinatsiyasini shakllantirish // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – №3. – B. 66–72.
4. Montessori M. Bola ongining siri. – Toshkent: Ilm Ziya, 2015. – 176 b.